
"AMIR TEMUR AVLODLARIMIZ"

Marg'ilon shahridagi 15-umumta'lum maktabida buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temur tavalludi munosabati bilan "Amir Temur avlodlarimiz" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

O'zbekiston madhiyasi baralla jarang sochgandan so'ng maktab direktori A.Yo'ldashev tadbirni kirish so'zi bilan ochib berdi.

Shundan so'ng maktabning iqtidorli o'quvchilari tomonidan ona-vatan haqida go'zal g'azallar, kuy va qo'shiqlar ijro etildi, Amir Temurning hayot yo'llari aks etgan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Ayniqsa, sahnada Amir Temur siymosi gavdalanganda tomoshabinlar iliq kutib oldilar.

Bir so'z bilan aytganda, Sohibqiron Amir Temur hayot yo'li barchamiz uchun ibratdir. O'sib kelayotgan yoshlar qalbida ajdodlar ma'naviy me'rosiga hurmat va ehtirom uyg'otish esa sharafli burchimiz hisoblanadi.

2023-04-07 10:59:59